


**BUILDERS OF THE FUTURE**journal homepage:
<https://kelajakbunyodkori.uz/>**A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE ZOONYM “DOG” IN DARI AND UZBEK FOLK PROVERBS*****Bibi Robiya Rakhmonkulova****Master's Degree Student (1st Year)**Higher School of Iranian and Afghan Studies**Tashkent State University of Oriental Studies**Email: bibirobiyarakhmonkulov@gmail.com**Tashkent, Uzbekistan****Kh. A. Uktamova****Senior Lecturer, PhD**Higher School of Iranian and Afghan Studies**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** Phraseologism, linguaculture, dog, zoonym, connotation, proverbs, phraseological unit, dari language, linguacultural aspect.**Abstract:** This article is devoted to the linguacultural analysis of the zoonym “dog” in Dari proverbs. Analytical, descriptive, classificatory, and linguacultural methods were used in the research. The purpose of this work is to identify the general symbolic meanings of the “dog” image in the folk consciousness through a linguacultural perspective in proverbs.**Received:** 25.03.26**Accepted:** 26.03.26**Published:** 27.03.26**DARIY VA O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA “IT” ZONIMINING QIYOSIY TAHLILI*****Bibi Robiya Raxmonqulova****“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi**1-kurs magistratura bosqichi talabasi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**bibirobiyarakhmonkulov@gmail.com**Toshkent, O‘zbekiston****X.A. Uktamova****TDSHU, “Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi katta o‘qituvchisi, PhD**Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit soʻzlar: Frazeologizm, lingvomadaniyat, it, zoonim, konnotatsiya, maqollar, frazeologik birlik, dariy tili, lingvokulturologik aspekt.

Annotatsiya: Mazkur maqola dariy tilidagi maqollarda “it” zoonimini lingvomadaniy jihatdan tahlil qilishga bagʻishlangan. Tadqiqotda analitik, tavsifiy, tasnifiy va lingvomadaniy metodlar qoʻllanilgan. Ushbu ishning maqsadi - maqollarda “it” obrazining xalq ongidagi umumiy ramziy maʼnolarini lingvokulturologik jihatdan aniqlashdir.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЗООНИМА «СОБАКА» В ДАРИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦАХ

Биби Робия Рахмонкулова

Студентка магистратуры 1 курса

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

Email: bibirobiyarakhmonkulov@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

Х. А. Уктамова

Старший преподаватель, PhD

Высшая школа иранистики и афганистики,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Фразеологизм, лингвокультурология, собака, зoonим, коннотация, пословицы, фразеологическая единица, язык дари, лингвокультурологический аспект.

Аннотация: Данная статья посвящена лингвокультурологическому анализу зоонима «собака» в пословицах языка дари. В исследовании использовались аналитический, описательный, классификационный и лингвокультурологический методы. Цель данной работы — выявить общие символические значения образа «собаки» в народном сознании в пословицах с лингвокультурологической точки зрения.

Kirish. Frazeologiya tilning frazeologik tizimini hozirgi holati va tarixiy rivojlanishini yaʼni tildagi barqaror birikmalarni oʻrganadigan tilshunoslik boʻlimidir. Barqaror birikmalar koʻchma maʼnoga ega, tuzilishi jihatdan yaxlit va oʻzgarmas boʻladi, hamda maʼlum bir xalqning madaniyati, urf-odati va dunyoqarashini aks ettiradi. V.N. Teliya fikricha, frazeologizmlar “jamoaviy ong tajribasini oʻzida mujassam etgan madaniy belgilar”dir[4:17]. Xalqning milliy obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida turgʻunlashgan, etalonlashgan obrazlar milliy idrokni aks ettiradi. Mazkur muammo bilan jiddiy shugʻullangan mutaxassislarining aksariyati qayd etganlaridek, oʻxshatish etalonlari anʼanaga kirgan, avlodan-avlodga oʻtib kelayotgan obrazlar sifatida xalqning dunyoni oʻziga xos idrok etishining ifodachisi boʻlgani uchun etalonlar komparativ iboralar tarkibida alohida

o‘rin tutadi va lingvokulturologik, ya‘ni til, milliy madaniyat va mentalitet munosabatlarini belgilash jihatidan favqulodda muhimdir[2:23].

Maqollar aksariyat hollarda asl ma‘nodan ko‘ra ko‘chma, majoziy ma‘nolarda ishlatiladigan ma‘qullovchi yoki rad etuvchi kinoyalarga boy hikmatli so‘z birikmalari yoki jumladan tarkib topgan bo‘lib, ular asosida birinchi navbatda qiyoslash, qarama-qarshi qo‘yish yoki o‘xshatma (analogiya) prinsiplari yotadi. Albatta, bu xususiyatlar maqollarning umumiy xususiyatlari bo‘lib, ular qaysi tilda bo‘lishidan qat‘iy nazar, barchasiga tegishlidir. Bu xususiyatlar afg‘on xalqining yozma va og‘zaki nutqida qo‘llanilib kelayotgan maqollarga ham oiddir.[6] Dariy va boshqa g‘arb tillari bir-biridan semantik, leksik va foydalaniladigan tabiiy sharoitidan kelib chiqib tubdan farq qiladi. Ammo o‘zbek va dariy tillarida bu holat umuman boshqacha, chunki tilimizga fors – dariy tillaridan ko‘pgina so‘zlar va so‘z birikmalari o‘zlashibgina qolmay, balki maqol–matallarimiz o‘rtasida ham anchayin o‘xshashliklar mavjud. “It” zoonimi qatnashgan maqollarda buning guvohi bo‘lishimiz mumkin

“Zoonim” termini tilshunoslik sohasida XX asrning 60-yillarida paydo bo‘lgan bo‘lib, yunon tilidan kelib chiqqan (ζῷον — hayvon + ὄνομα — nom). Rus onomastik terminologiyasi lug‘atida N.V. Podolskaya zoonim – odamlar tomonidan berilgan hayvon laqabi, belgilar ketma-ketligi ekanini ta‘kidlaydi. Zoonim komponentli frazeologizmlar insonning atrof-muhit, hayvonlarning tashqi ko‘rinishi va odatlarini ko‘p asrlik kuzatishlari natijasida yuzaga kelgan. Hayvonlar insoniyat dunyosining ajralmas qismidir. Dariy tilida zoonim komponentli ko‘plab afsonalar, ertaklar va frazeologizmlar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘zining milliy-madaniy semantikasiga ega.

“It” zoonimini dunyo tilshunosligida, xususan, ingliz va rus tilshunosligida J. Baghana, E.S. Iakovleva [3], F.N. Daulet, G.G. Shaimerdenova, A. Nurdolla [4], O.J. Latipov [7], A.V. Medvedeva [9], Nyam Txi Van An [11], B. Omer [8] va boshqalar o‘rgangan[1:60]. Fors tilshunosligida ham “it” zoonimi ko‘plab tadqiqotlarda keng yoritilgan. Kosar Salimi Abdolmaleki “Rus va fors maqol hamda frazeologizmlarida “it” konsepti” nomli maqolasida ushbu zoonimni batafsil tasvirlagan[1:60]. Fakhte Naxavali dissertatsiyasida fors maqollarida hayvon nomlarining metaforik qo‘llanilishini, jumladan it obrazini ham o‘rganadi [5]. Negabi Ahmad ham rus tilidagi hayvon nomlarining frazeologiyadagi qo‘llanilishi va ularning fors tilida ifodalanish usullarini tahlil qilgan[10].

Dariy tilidagi uy hayvonlari nomlari qatnashgan maqollarni ko‘rib chiqish davomida afg‘on xalqi ongida inson tabiatini ifodalashda “it” zoonimidan keng foydalanilganligiga guvoh bo‘ldik. It inson qo‘lga o‘rgatgan eng qadimgi hayvonlardan biri sifatida uning doimiy hamrohi bo‘lgan. Xoh ov jarayonida, xoh janglarda, xoh qo‘riqlashda it insonning ko‘makchisi o‘laroq yonida bo‘lgan. Bu holat u bilan bog‘liq xususiyatlarni inson tabiatini aks ettirish uchun faol qo‘llashga olib kelgan.

Yuqoridagi mualliflar, jumladan, Kosar Salimi Abdolmaleki, Fakhte Naxavali, Negabi Ahmad frazeologik lug‘atlardan saralash va tanlab olish asosida rus va fors maqollarida itning eng

yorqin obrazlarini o'rganib, quyidagi umumiy konnotatsiyalarni ajratdilar. Biz ham tadqiqotimizda ular belgilangan obrazlar asosida afg'on maqollarida qo'llanilgan it obrazini tahlilga tortdik:

1. Nopoklik

Din barcha jamiyatlarda maqol va matallarga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Islomda it najas (nopok) hayvon hisoblanadi va shuning uchun it og'zi tekkan yoki yarim yegan narsasi (yoki idish) ham najosatli sanaladi va shariat ko'rsatmasiga ko'ra yuvilishi kerak bo'ladi[12]. Afg'on xalqi diniy qarashlarida ham itga salbiy munosabat mavjud va bu narsa ayrim afg'on maqollarida ham aks etadi.

اگر دعای سگ قبول میشود، از آسمان استخوان میبارید. 16:154

Ma'nosi: Agar itning duosi ijobat bo'lganda, osmondan suyak yog'ar edi.

Afg'on xalq maqollarida suyak itning asosiy yemishi sifatida tilga olinadi va it va suyak assotsiatsiyasi ko'p uchraydi. Ushbu maqol vijdoni pok bo'lmagan, yomon niyatli yoki pastkash odam birovni qarg'asa yoki yomonlik tilasa, uning gapi amalga oshmasligi, qarg'ishi o'tmasligini bildirish uchun aytiladi. Ya'ni, "nopok insonning niyati bilan dunyo o'zgarib qolmaydi" degan ma'noda qo'llasak bo'ladi.

Ba'zan esa inson o'ziga loyiq bo'lmagan yoki mantiqsiz narsani juda qattiq istaganida, uning bu xohishi asossiz ekanini ta'kidlash uchun ishlatiladi. Shuningdek maqoldan taqdirning inson xohishiga bog'liq emasligi ham anglashiladi. Dunyo tartibi faqatgina kimningdir ayniqsa, niyati buzuq kimsalarning xohish-istagi bilan emas, balki oliy hikmat asosida qurilganiga ishora qiladi. O'zbek tilida ushbu maqolga "bir qarg'a bilan qish kelmas"[18] muqobil bo'la oladi. Bu maqoldan hamma narsaning o'z nizomi bor, biror kishining asossiz vahimasi yoki bo'lmag'ur gaplari hech narsani o'zgartirmaydi, insonlar orasidagi mish-mishlar asl voqelikni o'zgartirishga qodir emas degan ma'no anglashiladi. Qarg'a — bu yerda sovuqdan yoki yomonlikdan darak beruvchi, tinimsiz shovqin soluvchi vahimachi timsoli.

Maqol asosan dushmanning po'pisasi yoki vahimachilarning gapi hech qanday asosga ega emasligini ta'kidlash uchun ishlatiladi.

نیم خورده سگ هم سگرا شاید [16]

Ma'nosi: Itdan qolgani faqat itga loyiqdir

Bu maqol ko'proq kinoya tarzida ishlatiladi. Maqoldan past sifatli yoki boshqalar rad etgan narsalarni faqat o'sha darajadagi odamlar qabul qiladi, degan ma'no anglashiladi. Agar biror kishi o'zining darajasidan ancha past, noma'qul ish yoki narsaga rag'bat bildirsa yoki nomunosib kishiga ko'ngil qo'ysa, unga nisbatan: "Senga bu ish loyiq emas, itning chalasini it yeydi" deb aytiladi. O'zbek tilida ushbu maqolning bir nechta muqobil variantini uchratishimiz mumkin: "It sarqitini yo'lbars yemas"[19], "it tumshug'ini tiqqan yerga suv ichgali sher kelmas"[19], "itdan qolganini mushuk yemas"[19]. Bu maqollarning zamirida insonning o'z qadr-qimmatini pastga urmasligi va

birovning ortidan qolgan narsalarga qanoat qilmasligi kerakligi yotadi. Maqollarda hayvonlar obrazi orqali insoniy xarakterlar tasvirlangan: yo‘lbars va sher: kuchli, mag‘rur, o‘ziga ishongan va mard insonlar timsoli. Bunday tabiatli insonlar pastkash yo‘l bilan topilgan narsalardan hazar qiladi. “Suv ichgani sher kelmas” deyish orqali, olijanob inson o‘z obro‘sigga putur yetadigan davradan yoki vaziyatdan uzoq turishi ta’kidlanmoqda. It odatda insondagi qaramlik yoki ma’naviy jihatdan pastlik ramzi sifatida tilga olinadi. Uchinchi maqolda esa it hatto mushukdan ham ma’lum darajada pastroq ekanligi ko‘rsatilgan.

سگ به هفت دریا پاک نشود [16]

Ma’nosi: “Itni yetti dengizda yuvsang ham pok bo‘lmaydi.”

به لق سگ دریا مردار نمی شود [15]

Ma’nosi: It suv ichgani bilan daryodan ifloslanib qolmaydi.

Islom dinida va klassik sharq tushunchasiga ko‘ra, bu ibora bir nechta sabablarga ko‘ra nopoklik bilan bog‘lanadi: 1) islomda itning so‘lagi nopok hisoblanadi. Agar u kichik idishdagi suvga tegsa, o‘sha suv harom bo‘ladi; 2) biroq, suvi ko‘p joylar — daryo va dengizlar o‘ziga tushgan oz miqdordagi najosat bilan nopok bo‘lmaydi. Maqol insoniy sifatlarni ham ushbu narsaga qiyoslaydi: yomon odamning ma’naviy nopokligi yaxshi va pok narsalarga ta’sir qila olmaydi. Yuqoridagilarga tayangan holda ushbu maqol “nopoklik” kategoriyasiga kiritildi.

O‘zbek tilida ham aynan shu shakl va ma’nodagi maqol mavjud: “It tekkan bilan daryo xarom bo‘lmaydi” [18]. Ushbu maqol chuqur va falsafiy ma’noga ega. Uning mazmunini haqiqiy ezgu ish, pokiza nom yoki kuchli shaxs egasiga mayda gap-so‘zlar, g‘iybatlar yoki pastkash kishilarning yomon munosabati zarar yetkaza olmaydi. Daryo — bu ulkan va pokiza kuch, it esa unga nisbatan juda kichik va ojiz narsa, deb talqin qilish mumkin Afg‘on va o‘zbek xalqi orasida bu maqol “Yomonning gapi bilan yaxshi yomon otliq bo‘lmaydi” ma’nosida ishlatiladi. Shuningdek, katta maqsadlar sari intilayotgan inson mayda to‘siqlarga va pastkashliklarga e’tibor bermasligi kerakligi uqtiriladi.

2. Huruvchi va vaysaqilik (bekorchi huradigan)

سگ غف غف میکند کروان به راه خود میرود [16:351]

Ma’nosi: “It huradi, karvon esa o‘z yo‘lida ketaveradi.”

Maqoldagi «itning hurishi» — maqsadga to‘sqinlik qila olmaydigan va hech qanday qiymatga ega bo‘lmagan harakatdir. Bu yerda «hurish» shunchaki shovqin chiqarish, g‘iybat qilish yoki birovning ishiga hasad bilan xalaqit bermoqchi bo‘lishni anglatadi. Karvon ya’ni aniq maqsad sari ketayotgan inson yoki jamiyat o‘z yo‘lida davom etaveradi. Itning hurishi esa behuda harakat bo‘lib qolaveradi. O‘zbek tilida ham aynan shu kabi maqol mavjud: “It hurar, karvon o‘tar” [18]. Bu konnotatsiyada it – ko‘p gapiradigan, lekin amalda zarar yetkaza olmaydigan, bekorga shovqin ko‘taruvchi mavjudot sifatida talqin qilinadi [1].

نه سگ را ببين و نه غف غف آن را بشنو]16:459]

Ma'nosi: "Na itga qara, na uning vovullashini eshit".

Bu maqol inson o'z xotirjamligini saqlashi uchun yomon fe'lli odamlardan, janjalli vaziyatlardan va yoqimsiz narsalardan butunlay uzoq turishi kerakligini anglatadi. Ya'ni, "muammoning sababchisi bilan uchrashmasang, uning shovqini va zarari ham senga yetmaydi" degan ma'noda ishlatiladi. O'zbek tilida aynan shu maqolga muqobil variant mavjud bo'lmasa-da, qisman "och qornim, tinch qulog'im"[19] maqolini keltirsak bo'ladi. Ammo o'zaro farqli jihatlari shundaki, o'zbek tilidagi maqolda insonning moddiy ehtiyoji va ruhiy xotirjamligi hamda kamiga rozi bo'lishi ifodalangan. Dariy tilidagi maqolda esa chegarani yopish va ortiqcha aloqani uzish ma'nosini ilg'ashimiz mumkin. "It" va "vovullash" so'zlari yoqimsiz odam va uning asabga teguvchi gap-so'zlarini ifodalovchi majoziy obrazlar hisoblanadi.

3. Yovvoyilik va xavf

Yovvoyilik, yirtqichlik va xavflilik xususiyatlari dariy tilidagi maqollarda "it" zoonimining eng ko'p uchraydigan konnotatsiyalaridan hisoblanadi.

16:182]] سگ سگ است هر چه پاسبان پاسد

Ma'nosi: "Itni qo'riqchi qilib qo'ysang ham, baribir itligicha qoladi".

Bu maqol: biror kishining lavozimi oshgani bilan tabiati o'zgarmaydi, pastkash odamni mansabga qo'ysang ham, uning asl xulqi o'zgarmaydi, shuningdek, biror unvon yoki vazifa insonning ichki olamini o'zgartirib qo'ya olmaydi, degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilidagi "eshak Makka borgan bilan hoji bo'lmas"[18] maqoli ushbu maqolga aynan muqobil variant bo'la oladi. Bu yerda Makka — eng muqaddas, insonni ruhan poklaydigan va o'zgartiradigan joy timsoli. Eshak esa — ongsiz, faqat jismoniy mehnat qiluvchi va johil mavjudot timsoli. Maqol, agar insonning aslidagi tabiati va tarbiyasi durust bo'lmasa, u qanchalik muqaddas joylarga bormasin yoki oliy martabaga erishmasin uning ichki dunyosi o'zgarmaydi, faqatgina tashqi ko'rinishni yoki joyni o'zgartirish bilan ichki mohiyat o'zgarishligiga ishora qiladi.

1]] پارو دم سگ مگذار

Ma'nosi: "Oyog'ingni itning dumiga qo'yma".

Har qancha xonakilashtirilgan bo'lmasin, itning tabiatida yovvoyilik instinkti bor. Uxlayotgan it tinch holatda bo'ladi, lekin uning dumini bosish uning ichidagi yovvoyi tabiatini uyg'otib yuboradi. Bu yerda «uxlayotgan it» — bu hozircha tinch turgan, lekin jahlini chiqarsa, katta zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yashirin xavf yoki vaziyat ramzidir. O'zbek tilida "tinch yotgan itning dumini bosma" [1] shakli mavjud. Bu yerda it xavfli, tajovuzkor va kutilmagan zarar yetkazuvchi mavjudot sifatida tasvirlanadi.

4. Sadoqat va insonning do'sti

Asrlar davomida it insonning sodiq yo‘ldoshi bo‘lib kelgan, shuningdek, u himoya, sadoqat hamda vafodorlik ramzi sifatida qaraladi. Afg‘on xalq madaniyatida ham ushbu konnotatsiya mavjud bo‘lib, quyidagi maqollarda buni ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi:

وفاداری را از سگ باید اموخت [16]

Ma‘nosi: “Sadoqatni itdan o‘rganish kerak”

سگ وفا و زن جف [16]

Ma‘nosi: “It vafo, ayol jafu”.

Itning vafodorligi — shartsiz va mutlaq sadoqatning ramziy belgisidir. Maqol sadoqat qanday bo‘lishi kerakligini hayvon misolida ta’kidlaydi. Maqol sadoqatning qadrini jafu bilan qiyoslab, insonlarni vafodor bo‘lishga va bevafo bo‘lishdan qaytaradi. Ushbu maqol sadoqatni qadrlamaydigan insonni hatto hayvondan ham pastroq darajaga tushirib ko‘rsatish orqali odamlarni o‘z ahdiga sodiq qolishga undaydi. O‘zbek tilida ham aynan shu kabi “it vafo, xotin jafu [18]” maqoli mavjud bo‘lib, komponentlar ham mazmun ham o‘zgarmagan. Bu konnotatsiyada ham it – sadoqatli, vafodor va egasiga bog‘langan mavjudot sifatida talqin qilinadi.

Maqol va frazeologik birliklarni o‘rganish mamlakat madaniyatiga chuqurroq kirib borish va uni bevosita til orqali o‘rganish imkonini beradi. “Hayvon” komponentli maqol va matallar esa o‘sha xalq dunyoqarashi, dini, an‘analari va milliy qadriyatlaridan darak beradi. “It” zoonimi ham ijobiy, ham salbiy baholanadi, hamda quyidagi konnotatsiyalar bilan bog‘lanadi: sadoqat, insonning do‘sti, huruvchi va vaysaqi, xavf va yovvoyilik, mehnatkashlik, nopok mavjudot va boshqalar [1]. Xulosa qilib aytganda, yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, “it” zoonimi dariy tilidagi maqollarda muhim rol o‘ynaydi. Afg‘on madaniyatida it inson bilan yaqin aloqada bo‘lgan mashhur hayvon hisoblanadi va shu mashhurligi tufayli uning nomi frazeologizm va maqollarida tez-tez qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Голами Х., Махмуди Амир Абд Ф. А. Общие символические значения зоонима «собака» во фразеологизмах (поговорок и пословицах) русского и персидского языков в лингвокультурологическом аспекте // *Litera*. – 2023. – № 9.
2. Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.
3. Baghana J., Iakovleva E. S. Language cultural specificity of the language units “dog” and “cat” in English and Chinese languages // *Russian Journal of Linguistics*. – 2016. – Vol. 20. – No. 2, 91–99.
4. Daulet F. N., Shaimerdenova G. G., Nurdolla A. Zoonym “dog” in Chinese, Kazakh, Russian and English languages // *Journal of Oriental Studies*.
5. Fakhte Naxavali. Animal metaphors and zoonym expressions in Persian and English: A comparative study // *Journal of Language and Cultural Education*. – 2019. – Vol. 7. – No. 2. – P. 89–101.
6. Mannonov A. Afg‘on xalq og‘zaki ijodiyoti. Monografiya. – T.: – Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti, 2021.

7. O. J. Latipov. Linguocultural interpretation of phraseologisms with zoonymic components “sobaka/it” (dog) in the Russian and Uzbek languages // Bulletin of Chelyabinsk State University. – ISSN 1994-2796. – 2025. – P. 43–51.
8. Omer B. Semantic and pragmatic features of zoonym-based metaphors in English and Arabic // International Journal of Applied Linguistics & English Literature. – 2017. – Vol. 6. – No. 5. – P. 45–52.
9. Medvedeva A. V. Zoonymy as a fragment of the linguistic picture of the world // Philological Sciences. Issues of Theory and Practice. – 2014. – No. 8 (38). – P. 112–115.
10. Negabi Ahmad. Linguocultural analysis of zoonymic phraseological units in Persian language // Theory and Practice in Language Studies. – 2020. – Vol. 10. – No. 4. – P. 456–462.
11. Nyam Txi Van An. National and cultural specificity of zoonymic phraseological units in Russian and Vietnamese languages // Russian Journal of Linguistics. – 2018. – Vol. 22. – No. 3. – P. 589–604.
12. Salimova Z. Turk va o‘zbek tillarida inson obrazini zoomorf hamda fitomorf komparativ birliklarda ifodalanishi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2023.
13. Teliya V. N. Russkaya frazeologiya: semanticheskij, pragmaticheskij i lingvokulturologicheskij aspekty. – Moskva: Shkola «Yazyki russkoy kultury», 1996. – 288 b.
14. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya: darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2019.
15. Wilson J. Ch. One hundred Afghan Persian proverbs. – Peshawar, 2004.
16. شهرانی، عنایت الله. ضرب المثل های دری افغانستان. کابل، ۱۹۸۰.
17. <https://ganjoor.net>
18. <https://maqollar.uz>
19. <https://n.ziyouz.com>
20. <https://www.fraze.ru>
21. farsi.khamenei.ir